



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 12-iyul, shanba,
79 (24.105)-son

O'zbek xalq
maqoli

Izlagan
olim bo'lar,
o'ylagan -
fozil

“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

Mustaqilligimizning 34 yilligiga
bag'ishlangan bayram tadbirlari ushbu
ezgu g'oya asosida nishonlanadi

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-iyul kuni “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida” qaror qabul qildi.

Qarorga ko'ra, milliy istiqloli-mizning 34 yillik shonli sanasi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlanadi.

Mustaqillik bayrami Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishi ta'minlanadi.

Mustaqillik bayramini yuqori saviyada nishonlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi: Yangi O'zbekistonda barpo etish bo'yicha sakkiz yil oldin boshlagan keng ko'lamli islohotlarimiz tufayli jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy manzarasi butunlay o'zgarib borayotgani;

qisqa muddatda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o'sib, yalpi ichki mahsulotimiz hajmi tarixda birinchi marta 110 milliard AQSh dollaridan oshgani, “yashil” va innovatsion iqtisodiyotga o'tish, muqobil energiya manbalarini yaratish bo'yicha ulkan dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani;

yanqilgan Konstitutsiyamizda belgilanganidek, O'zbekiston tobora inson qadri, uning huquq va manfaatlari ulug'lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, bandlikni ta'minlash, zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish, kambag'allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari katta ijobiy natijalar berayotgani;

ta'lim sohasidagi islohotlar ilgari tariximizda misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib kelayotgani, maktabgacha ta'lim tizimida qamrov 2017-yildagi 27 foizdan hozirgi paytda 77 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetgani, yurtimizda ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi maktablar tizimi paydo bo'lgani;

sog'liqni saqlash, ilm-fan, IT, madaniyat, adabiyot va san'at sohalari rivojiga ham katta e'tibor berilayotgani, Parij Olimpiadasi va Paralimpiadasida sportchilarimiz ilk bor kuchli o'n beshtalikdan joy olgani, futbol bo'yicha 17 yoshgacha o'smirlar jamoamiz, shuningdek, milliy terma jamoamiz O'zbekiston tarixida birinchi marta jahon chempionatiga

yo'llanmani qo'lga kiritgani;

“Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari” degan shior ostida navqiron avlodimizning zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarini egallashlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari, iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarishlari uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilayotgani, bunga javoban o'g'il-qizlarimiz turli sohalarida dastlabki quvonchli yutuqlarga erishayotgani;

keyingi yillarda shahar va qishloqlarimiz jadal sur'atlar bilan obod bo'lib borayotgani, “Yangi O'zbekiston” uy-joy mavzellarini barpo etish, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari doirasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgani, smart va innovatsion shaharsozlik asosida yangi shaharlar barpo etilib, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlanayotgani; ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o'zaro do'stlik va hamjihatlik muhiti – bizning bebaho boyligimiz ekani, uni asrab-avaylash va mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz bo'lib qolishi zarurligi;

“Armiya va xalq – bir tanu bir jondir!” degan shior asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, mard va jasur askar va ofitserlarimizning jismoniy, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar amalga oshirilayotgani;

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnihilik, hamkorlik va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi o'rni va nufuzi ortib, yangi bosqichga ko'tarilayotgani;

Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obro'-e'tibori va nufuzi tobora yuksalib borayotgani ahamiyat beriladi.

“Ona diyor – ranglar jilosida”, “Vatan uchun yashaylik!”, “Eng ulg'ay, eng aziz” kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlar yuqori darajada o'tkaziladi.

Yurtimiz istiqlolini tarannum etadigan eng yaxshi qo'shiq va musiqa asarlari tanlovlarining yakuniy bosqichi tashkil etiladi.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev boshchiligidagi viloyatimiz delegatsiyasi Fransiyada bo'ldi. Dastlab delegatsiyamiz a'zolari mamlakatimizning Fransiyadagi elchixonasida asosan quruq mevalar, jumladan, xurmo va zaytun importi va eksporti bilan shug'ullanuvchi kompaniya tijorat direktori Fetayya Gali bilan uchrashdi.

Uchrashuvda O'zbekistonda yetishtirilgan mayiz, yong'oq va boshqa turdagi quruq mevalarni Fransiyaga eksport qilish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. Fransiyalik tadbirkor O'zbekiston mevalarining ta'mi, shirinligi va boshqa xususiyatlarini e'tirof etib, bu mevalarni import qilishda samarqandlik tadbirkorlar bilan ishlashdan mamnun ekanini bildirdi.

Shundan so'ng A.Boboyev UNESCO Butunjahon merosi markazi direktori Lazar Elundu Assomo bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va asrab-avaylashda tajriba almashish, ilg'or jahon amaliyotini tatbiq etish yuzasidan fikr almashildi, sohada hamkorlikni yanada yaxshilash bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Tashrif davomida A.Boboyev UNESCOning bosh ofisida tashkilotning Butunjahon merosi qo'mitasining 47-sessiyasida ham ishtirok etdi. Unda “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” Butunjahon merosi obyekti bo'yicha muhokamalar o'tkazildi.

Sessiyada qayd etilganidek, yaqin kunlarda Butunjahon madaniy merosi tomonidan “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” va “G'arbiy Tyanshan” Butunjahon merosi obyektlariga oid hujjatlar e'lon qilinishi kutilmoqda.

Sessiyada Samarqanddagi obidalarni ke-



Samarqandlik mutasaddilar FRANSIYADA

lajak avlodga yetkazish, atrofini obodonlashtirish masalalari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, bu borada hamkorlikda ishlash yuzasidan galdagi vazifalar belgilandi.

Navbatdagi uchrashuv viloyat hokimi rahbari Adiz Boboyev va Parij shahri meri o'rinbosari Arno Ngatcha o'rtasida o'tkazildi.

Mer o'rinbosari ikki mamlakat o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganini yuqori baholadi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga oid tajribalar bilan o'rtoqlashdi.

O'z navbatida, Adiz Boboyev samarali boshqaruvni amalga oshirish, shaharni chiqindilardan tozalash jarayonlarini tashkil etish bo'yicha hamkorlik qilish yuzasidan takliflarini berdi.

Tashrif doirasida Xalqaro tarixiy yodgorliklar va majmualarni muhofaza qilish kengashi

(IKOMOS) bosh direktori Mari-Laur Lavenir xonim bilan ham muloqot qilindi.

Unda Samarqandning tarixiy qismida joylashgan obidalar, xususan, Imom Moturidiy ziyoratgohi atrofini obodonlashtirish, qurilish-ta'mirlash ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirish yuzasidan ko'rilyotgan choralar muhokama qilindi.

Uchrashuvda viloyat rahbari Bibixonim majmuasini ham rekonstruksiya qilish muhimligini ta'kidladi.

Samarqand shahrining UNESCO Jahon merosi hududida olib borilayotgan rekonstruksiya ishlari, ular bilan bog'liq ravishda infratuzilmaning o'zgarishi holati yuzasidan fikr almashinib, mahallalardagi tarixiylikni saqlab qolish, ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish borasida hamkorlikda ish olib borishga kelishib olindi.

Oiladagi muhit jamiyat ob-havosini belgilaydi

Bugun oilalardagi muhit, undagi xotirjamlik omillari nimalarga borib taqaladi? Oilalardagi iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda ma'naviy mezonlar ham ushbu muqaddas maskan xotirjamligiga raxna solayotgani tashvishlanarli holat.



Bosh vazir o'rinbosari, oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova viloyatimizda bo'lib, aynan shu masalalar, ya'ni oilalar xotirjamligini asrash, undagi ijtimoiy-ma'naviy muammolarni hal etishda mahallaning o'rni kabi masalalar bo'yicha olib borilayotgan ishlarni o'rgandi. Viloyat Yoshlar markazida “Ayollar haftasi: 5 yillik

sarhisob” mavzusida milliy anjuman o'tkazildi. Unda qator hamkor tashkilotlar vakillari, faollar, oila va xotin-qizlar bo'limlari rahbarlari ishtirok etdi.

Bugun oila masalalari bevosita har bir tashkilot faoliyatiga daxldor, dedi Z.Mahkamova. – Oilalardagi xotirjamlik, ularni kambag'allikdan chiqarish, oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi, sifatli ta'lim, sog'lom tur-

mush tarzi – bularning hammasiga mas'ul tashkilotlar bor va ular doimiy hamkorlikda natijaga erishishi mumkin. Qolaversa, bugun aholi o'zini qiyinayotgan muammolarni hal qilish uchun u tashkilotdan bu tashkilotga emas, balki o'zi istiqomat qilayotgan mahallaga murojaat qilishi kerak. Buning uchun mahallada barcha shart-sharoitlar mavjud. “Mahalla yettilligi” faoliyati yo'lga qo'yilgan, ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning joylardagi bo'limlari faoliyati tashkil etilgan, mahalladagi “Ayollar haftasi” tuzilmasi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning qator moliyaviy masalalari hal etilmogda. Tabiiyki, muammo kattaroq bo'lsa, faollarning masalani o'z vaqtida kerakli mas'ullarga yetkazishi uchun ham barcha imkon bor. Muammolarni hal etishda barcha tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan va uni hal etishda nazorati ham olib boriladi. Bir paytlar mahalla faqat uch-to'rt xil ma'lumotnoma beradigan joyga aylanib qolgan edi. Bugun ular uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Bu imkoniyatlarni ishga solish, aholi bilan muloqot, ularning dardini yengillatish yo'lida doimiy

sa'y-harakat lozim. Shundagina mamlakatimiz rahbari ta'kidlagan, odamlarni rozi qilish yo'lidagi ishlarimiz o'z natijasini beradi.

Zulayho Mahkamova yig'ilish davomida bu masalada viloyatda olib borilayotgan ishlar, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarga to'xtalib o'tdi, mas'ullarga bu borada zarur topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Bosh vazir o'rinbosari joylarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muammolar va ularni hal etishda olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Xususan, Jomboy tumanidagi Kattaqishloq, Bulung'ur tumanidagi Mingchinor mahallasida o'tkazilgan uchrashuvda xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, oilalardagi muammolarni erta aniqlash, yoshlar tarbiyasi, nikohgacha tayyorgarlik, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, onalik va bolalik muhofazasi yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama etildi. Mahallaning maqomini oshirish, murojaatlarni to'g'ri o'rganish va joyida hal etish bo'yicha Jomboy tumani tajribasi yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Gulruh MO'MINOVA.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishda Respublikamizdagi bugungi haqiqiy holat tanqidiy tahlil qilinib, sohada o'z yechimini kutayotgan masalalar ko'pligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari oxirgi 7 yilda yo'llarni qurish va ta'mirlashga 61 trillion so'm ajratilgan bo'lishiga qaramasdan, 2024-yilda 9 ming 364 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgani, avtohalokatlar tufayli 2 ming 203 nafar odam halok bo'lgani, qariyb 9 ming fuqaro jarohat olganini afsus bilan qayd etdi.

Prezident avariylar soni yuqoriligidan qolayotgan hududlar va og'ir oqibatli avariylar keskin kamaygan tumanlar haqida to'xtalib, qayerda hokim va YHXX birgalikda yo'l infratuzilmasi bilan jiddiy shug'ullangan bo'lsa, o'sha yerda o'zgarishlar kuzatilganini ta'kidladi.

Yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash va infratuzilmani yaxshilash maqsadida bundan buyon “Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda” respublika jamg'armasi faoliyati qayta tashkil qilinishi ma'lum qilindi. Jamg'arma mablag'ini shakllantirishda barcha viloyat va tumanlarning

Har kuni o'rtacha 6 kishi yo'lda vafot etyapti

Bu barchani qattiq
tashvishga solishi kerak

imkoniyati bir xil emasligi ko'rsatilib, jamg'armaga mablag'larni loyihalarni moliyalashtirish uchun viloyat va tumanlarga taqsimlash vakolati berildi.

Avvalo, har yili minglab odamning yo'l-transport hodisalaridan ko'z yumayotgani e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Yo'l-transport hodisasi oqibatida kuniga o'rtacha 6 nafar insonning halok bo'layotgani nafaqat statistika, balki har bir yurtdoshimiz uchun chuqur qayg'u va fojia hisoblanadi. Demak, yo'l infratuzilmasi, piyodalar o'tish joylari va qayrilib olish joylarining noqu-

layligi, haydovchilik madaniyatining yetishmasligi hamda o'z huquq va majburiyatlarini yetarli darajada bilmaslik kabi muammolar tubdan hal etilishi kerak.

Shu sabab avtomobil to'xtash joylarining yetarli darajada tashkil etilmaganligi, jamoat transportining jadvalga muvofiq ishlamasligi va ayrim tashkilotlarning ko'chalarni to'sib qo'ygani tanqid qilindi.

Surunkali qoidabuzarlik bo'yicha qat'iy choralar belgilanishi, qoidabuzarlarga nisbatan qonuniy chora ko'rinishi haydovchilarni ham, yo'lovchilarni ham tartibga chaqiradi.



Munosabat



Aslida harakat xavfsizligini ta'minlash nafaqat haydovchilar, balki piyodalarning ham mas'uliyatini oshirishni talab etadi. Shu ma'noda yig'ilishda maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalari bo'yicha maxsus dasturlar yangilanishi belgilangan partiyaamiz dasturiy maqsadlariga mos tushadi. Bundan tashqari, “Yashil chiroq” musobaqalari qayta tiklanishi va g'oliblar Prezident sovg'asi bilan taqdirlanishi qayd etildi. Yoshlar ongini shakllantirish uchun zamonaviy videoroliklar, animatsion kontentlar ishlab chiqilishi belgilanganisi esa elektoratimiz – ziyolilar oldiga ham yangi vazifalar qo'yadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur yig'ilish yo'l harakati tizimida tub burilish qilishga intilayotgan davlat siyosatining yorqin ifodasi bo'ldi.

Umuman, har bir topshiriq, ajratilayotgan mablag' va amalga oshirilayotgan islohotlar markazida inson hayoti, uning salomatligi va xavfsizligi turadi. Endi bu jarayonlarda barcha davlat organlari, mahalliy hokimliklar, jamiyat vakillari hamkorlikda qatnashib, belgilangan vazifalarni bajarishi kerak. Shundagina yo'llarimiz xavfsiz, harakat esa madaniyatli va tartibli bo'ladi.

**Akbar AXTAMOV,
«Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.**

Essiz mehnat, essiz mablag‘...

Yoki tizim yo‘qligining oqibatlari haqida aniq misollar

Viloyatda 274,2 gektar yer maydonida 69 ta kichik sanoat zonalari va 43,1 gektar yer maydonida 16 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari tashkil etilgan.

Yer maydonining 54,1 gektari infratuzilma obyektlari uchun va ularni qurishga mahalliy budjetdan 96,4 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan.

Biroq sanoat zonalariga loyiha joylashtirilishi haqida iliq fikr bildirib bo‘lmaydi. Misol uchun, loyiha joylashtirish mumkin bo‘lgan 263,2 gektar yer maydonining 126,4 gektari yoki 48 foizi bo‘sh turibdi. Shuningdek, 29,7 gektar yer maydoniga ega 14 ta sanoat zonasida birorta ham lot auktsion savdolariga chiqarilmagan.

Loyihalarning amalga oshirilishi ham qoniqarli ahvolda emas. Negaki, 136,7 gektar yerga joylashtirilgan 552 ta loyihaning 408 tasi ishga tushirilmagan. Ishga tushirilmagan 128 ta loyihaning 81 tasida 2 yil va 47 tasida 2 yildan ziyod vaqt davomida qurilish ishlari boshlanmagan.

Bugungi kunga qadar kichik sanoat zonasi ishtirokchilari tomonidan yillar davomida yer uchastkasidan samarasiz foydalanilganligi sababli 75 ta holat yuzasidan sud organlari orqali 20,8 gektar yer maydoni davlat xazinasiga qaytarilib, qayta auktsion savdolariga chiqarish bo‘yicha tegishli takliflar berilgan.

Qayd qilinganlarga qaramasdan sanoat zonalarida ishga tushirilgan loyihalar ham bor. Tahlillarga ko‘ra, ularda ham e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalar mavjud. Jumladan, sanoat zonalarida hisobotlar bo‘yicha ishga tushirilgan 169 ta loyiha joyida o‘rganilganda 41 tasida bir yildan ziyod vaqt davomida ishlab chiqarish to‘xtab qolgan, shundan 13 ta loyiha ishga tushirilmaganligi aniqlangan.

SANOAT KORXONASI O‘RNIGA UY-JOY QURISH FOYDALIMI?

Albatta, har bir lot aniq maqsad, to‘g‘rirog‘i, investorga muayyan vazifa yuklab berilgan. Biroq ayrim tadbirkorlar “Sanoat zonasidan bo‘lsayam yerni olib bo‘ldim, endi, nima qilsam o‘zim bilaman” qabilida ish tutgan. O‘rganishlar davomida sanoat zonalaridagi yer maydonlari investitsiya majburiyatlarida ko‘rsatilganidan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari ham aniqlangan.

Masalan, 2018-yilda “Zarinaxon Sam prestij” xususiy korxonasiga mebel ishlab chiqarish loyihasi uchun Oqdaryo tumanidagi “Dahbed MTP” kichik sanoat zonasidan 0,6 gektar yer maydoni ajratilgan.

Korxona tomonidan investitsiya majburiyatlarni bajarmaganligi sababli 2020-yil kichik sanoat zonasi ishtirokchisi maqomi bekor qilingan. Lekin ayni o‘sha yilda yer maydoni doimiy foydalanish huquqi bilan kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berilgan. Oqibatda korxona tomonidan ko‘p qavatli turar joy qurish uchun harakat boshlangan.

Balki, sanoat korxonasi qurib, uni ishga tushirgandan ko‘ra, uy-joy qurib pullash foydaliroqdir. Ammo ijtimoiy mas‘uliyatchi? Axir yer yangi ish o‘rinlari ochish, soliqqa qo‘shimcha tushum manbalarini yaratish, pirovardida tumanning iqtisodiy holatini yaxshilash uchun ajratilmaganmidi?

Boz ustiga ushbu kichik sanoat zonasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qulay bo‘lishi uchun 1,4 milliard so‘m budjet mablag‘lari ajratilgan. Aniqlirog‘i, hududda kommunikasiya tarmoqlarini qurish uchun shuncha pul sarflangan.

Bunday holat Payariq tumanida ham aniqlangan. Jumladan, tumandagi “Chelak MMTP” kichik sanoat zonasida tadbirkor “Shunqor Ahmedov” xususiy korxonasi tomonidan tikuvchilik loyihasi belgilangan bo‘lsa-da, ajratilgan yer maydionida ko‘p qavatli uy-joy qurilayotganligi aniqlangan.

Savol tug‘iladi, qaysi hududda tadbirkorlar tomonidan qurilayotgan ko‘p qavatli uy-joylarning kommunikasiya tarmoqlari uchun budjetdan 1 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi?

SOLIQ TUSHUMLARI KO‘NGILDAGIDEK EMAS

Faoliyat ko‘rsatayotgan 103 ta korxonaning soliq hisobotlari tahlil qilingan 2024-yil davomida 71 ta korxona tomonidan bor-yo‘g‘i 18,5 milliard so‘m soliq to‘langan. Joriy yilning birinchi choragida 61 ta korxona tomonidan 4,7 milliard so‘m soliq to‘lovlari amalga oshirilgan xolos.

Vaholanki, 2018-yildan boshlab ushbu sanoat zonalarini tashkil etish va kommunikasiya tarmoqlarini qurish uchun 96,4 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, 24,5 ming kvadrat metr davlat mulki binosi “nol” qiymatda berilgan.

Bu raqamlar hali foyda u yoqda tursin, sarflangan mablag‘ qaytmayotganini ko‘rsatmaydimi?

Tahlillarga ko‘ra, Samarqand shahrida kommunikasiya tarmoqlari mavjud 3,8 gektar yer maydoni ham-

Viloyat hokimligida



da 3,7 ming kvadrat metr bino “nol” qiymatda ajratilgan. Lekin 2024-yilda 7,2 milliard va joriy yilning 1-choragida 443 million so‘m soliq to‘langan.

BUNDAY HOLAT NIMA DEB NOMLANADI:

O‘ZIBO‘LARCHILIKMI YOKI BEPARVOLIK?

Har nima bo‘lganda ham mavjud holat faqat viloyat rahbarini emas, soha mas‘ullarini, quyidagi mutasaddilarni ham jiddiy o‘ylashga, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishga undashi shart.

Shu o‘rinda yana bir gapni aytib o‘tish lozim. Kichik sanoat zonasida ishtirokchisi direksiya bilan bitim imzolaydi. Ushbu bitim asosida tomonlarning majburiyatlari mavjud bo‘lib, KSZ ishtirokchisi tomonidan investitsiya majburiyatini bajarish, qurilish-pudrat ishlarni belgilangan me‘yorlar asosida o‘z vaqtida yakunlash va bu haqda direksiya ma‘lumot taqdim etishi belgilanadi.

62,6 gektar yer maydoniga ega bo‘lgan 341 ta lotlarda joylashtirilgan loyihalarda bugungi kunga qadar qurilish ishlari oxiriga yetkazilmagan yoki umuman boshlanmagan.

Ikki tomon imzolagan bitimga ko‘ra, KSZ ishtirokchilari tomonidan belgilangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda va yoki nogonuniy xatti-harakatlar kuzatilgan taqdirda direksiya tomonidan tegishli tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda choralar ko‘rishi kerak.

Mavjud muammo va kamchiliklar viloyat hokimligi apparati yig‘ilishida atroflicha muhokama qilindi. Mutasaddilardan izoh so‘ralib, aniq topshiriqlar berildi.

Hammasi iziga tushib ketarmikan?!

Y.MARQAYEV
tayyorladi.



Jamoat transportida xizmat sifati qanday yaxshilanadi?

Viloyatda 173 ta tadbirkorlik subyekti 4963 ta transport vositasi bilan, shuningdek, yo‘nalishsiz taksi sifatida 79 ta korxona 415 ta yengil avtomashina bilan, 21 ming 668 nafar fuqaro 22 ming 304 ta transport vositasi bilan yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Ulardan 587 tasi avtobus, 160 tasi mikroavtobus, 2 014 tasi “Damas” rusumli litsenziyalangan transport vositalaridir.

Viloyat Matbuot uyida transport boshqarmasi hamda transport nazorati inspeksiyasi avtomobil va suv transportida nazorat viloyat hududiy bo‘limi mas‘ullari ishtirokida o‘tkazilgan matbuot anjumani-da ana shu raqamlar yordamida jamoat transportining buguni va ertasi haqida so‘z yuritildi.

BRUTTO-SHARTNOMASI O‘ZINI OQLAYAPTI(MI)?

Ta‘kidlanishicha, viloyatda jamoat transporti xizmati sifatini yaxshilash va aholiga qulaylik yaratish maqsadida avtobuslar brutto-shartnoma tizimi bo‘yicha ishlashga o‘tkazilmoqda. Jumladan, Samarqand shahrida shu tizim yo‘lga qo‘yilgan. Brutto-kontrakt tizimi tashuvchilarga korxona va nazorat qiluvchi organ o‘rtasida tuziladi. Bunda tashuvchi korxonaga jamoat transportiga qo‘yilgan talablarni, ya‘ni yo‘nalish chizmasiga to‘liq rioya qilish, yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatish, oraliq intervalga, ish boshlanishi va tugashi vaqtiga amal qilish vazifasi yuklatiladi.

Avtobuslar yangilanishi natijasida Samarqand shahrida bir kunda 400 mingga yaqin yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatilmoqda, - deydi viloyat transport boshqarmasi transport tashuvchilarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i Mahmud Uzoqov. - Jumladan, boshqarmamiz muassisligidagi “Samarqand yo‘lovchitrans” DK balansidagi 100 ta elektrobus brutto-shartnomasi asosida 9 ta yo‘nalishga birlitirilgan. Korxona tomonidan joriy yilning hozirgi davriga qadar o‘rtacha hisobda 9 million nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsa-



tilgan. Shuningdek, Samarqand shahrida “Tramvay liniyalarini ekspluatatsiya qilish direksiyasi” DK 2 ta yo‘nalishda, ya‘ni 1-sonli “Temiryo‘l vokzali – Sartepa massivi” va 2-sonli “Temiryo‘l vokzali – Siyob bozori” yo‘nalishlari orqali yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda. Ushbu korxona tomonidan 2024-yil davomida

jami 3 million yo‘lovchi tashilgan bo‘lsa, joriy yilning bugungi kuniga qadar 1,5 million yo‘lovchilar tramvaylar xizmatidan foydalandi. Hozirda Samarqand shahar avtobus yo‘nalishlaridan 22 tasi tender tanlovlari asosida xizmat ko‘rsatish istagini bildirgan tashuvchilar bilan brutto-shartnomasi imzolandi. Tizim asosida faoliyat ko‘rsatayotgan tashuvchilar tegishli xizmatlari uchun moliyalashtirilib borilmoqda. Ushbu avtobuslarda yuzaga kelayotgan muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish, tashuvlarda sifat darajasini



ko‘tarish maqsadida “Yo‘lovchi tashishni monitoring va nazorat qilish” davlat muassasasining ishonch telefonlari ishga tushirilgan.

YO‘LKIRANING TABAQALASHGANI ELEKTRON TO‘LOVNI OMMALASHTIRDI

Matbuot anjumanida ma‘lum qilinishicha, Samarqand shahar jamoat transportida yo‘lkira narxlar tabaqalashgan tartibda amalga oshirilmoqda. Ya‘ni, naqd shaklda uch ming so‘m va elektron to‘lov ikki ming so‘mni tashkil etadi. Tizimdagi ushbu tafovut sababli elektron to‘lovning ommalashuviga erishilgan. Xususan, o‘tgan yilda jamoat transporti foydalanuvchilari 17-20 foiz yo‘lkira haqini to‘lashgan bo‘lsa, 2025-yilning 1-iyun holatiga bu ko‘rsatkich o‘rtacha 30-35 foizga o‘sgan. Bu bir vaqtning o‘zida sohadagi yashirin iqtisodning oldini olishga hamda jamoat transportidan foydalanish darajasining aniq miqdorini belgilashga xizmat qilmoqda. 2025-yilning yakuniga qadar Samarqand shahar jamoat transportini to‘liq elektron to‘lov tizimiga o‘tkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, hozirda shahar atrofi yo‘nalishlarini ham elektron to‘lovga o‘tkazish yuzasidan takliflar tayyorlanmoqda.

YANA 50 TA ELEKTROBUS YANGI YO‘NALISHLARGA CHIQRILADI

Samarqand Yevropa “Tiklanish va taraqqiyot” bankining “Yashil shaharlar” dasturiga qo‘shilgan. Mazkur loyiha doirasida shaharga elektrobus olib



kelinmoqda.

Viloyat transport boshqarmasi axborot xizmati rahbari Sherzod Xalilovning ta‘kidlashicha, yil yakuniga qadar Samarqandga yana 50 ta elektrobus olib kelinadi. Mahalliy tadbirkorlik subyektlari tomonidan olib kelinishi rejalashtirilgan 112 ta zamonaviy avtobus va 80 ta mikroavtobuslar yo‘nalishlarga joylashtiriladi. Shahardagi 21 ta yo‘nalishga elektron tender o‘tkazilib, cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar tashish bosqichma-bosqich brutto-shartnoma asosida xizmat ko‘rsatilishi ta‘minlanadi. Shu bilan birga, Samarqand tumanida 2 ta, Oqdaryo tumanida 1 ta avtostansiya tashkil etilib, Narpay tumanidagi avtostansiya rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, viloyatda joylashgan 1 ta avtostansiya va 34 ta avtobus bekatlarida qurilish va ta‘mirlash ishlari olib borilib, jamoat transporti uchun 11,2 kilometr alohida yo‘lak tashkil etiladi. Yo‘lovchi tashuvchi transportlar yetib bormagan mahallalarda 12 ta yangi yo‘nalishlar ochiladi.

NOQONUNIY ISHLAYOTGANLAR HAM YO‘Q EMAS

Transport nazorati inspeksiyasi avtomobil va suv transportida nazorat viloyat hududiy bo‘limi boshlig‘i Ergash Murodovning so‘zlariga ko‘ra, tashkilot inspektor xodimlari tomonidan joriy yilning yanvar-may oylarida viloyat hududi bo‘ylab IIB YHXB xodimlari bilan birgalikda olib borilgan xizmatlar davomida 337 ta reytd tadbiri o‘tkazilib, yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan qoidabuzar fuqarolarga nisbatan 4768 ta ma‘muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan. 16 ta yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar tekshirilib, 600 million so‘m jarima jazosi tayinlangan. 266 ta yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalarda profilaktika tadbirlari o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, Jomboy, Nurobod, Paxtachi va Samarqand tumanlari hududida katta hajmli va og‘ir vaznli yuk avtotransport vositalarini nazorat qilish maqsadida 3 ta ko‘chma tarozi nazorat punkti faoliyat yuritmoqda. Xizmat tekshiruv davomida 467 ta avtotransport vositasi ko‘zdan kechirilib, 337 tasida me‘yoriyan ortiq yuklar borligi aniqlangan va transport vositalari vaqtinchalik jarima maydoniga qo‘yilgan.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

Kengash

kuchli bo‘lishi uchun

yangi va qo‘shimcha vakolatlar berilmoqda

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etish, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish, vakillik organlari nazoratining samarali va ta‘sirchan mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish borasida izchil ishlar olib borildi.

Xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish borasida mahalliy Kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tashvishga solib kelayotgan dolzarb masalalarni hal etish hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati ustidan ta‘sirchan nazorat o‘rnatish choralari ko‘rilyapti.

Mahalliy Kengashlar faoliyatini tashkiliy, axborot-tahliiliy va texnik qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2020-yilda mahalliy Kengashlarda doimiy asosda faoliyat yurituvchi kotibiyatlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Yangilangan Konstitutsiyaga asosan mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o‘z faoliyatini amalga oshirishda ko‘maklashish Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlaridan biri sifatida belgilandi.

Natijada parlament yuqori palatasi tarkibida Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiya, Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi tashkil etildi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan 20 dan ortiq qarorlar qabul qilindi, huquqiy asoslar yanada mustahkamlandi.

Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, yangilangan Konstitutsiyadan kelib chiqib, “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyilini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish maqsadida joriy yil 23-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonda jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish, fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida nomarkazlashtirish, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari xalqaro hamkorligining huquqiy asoslarini mustahkamlash kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi hamda ushbu konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida bir qator vakolatlarini mahalliy Kengashlarga o‘tkazish bo‘yicha takliflar ma‘qullandi.

Xususan, davlat binolarini ijaraga berishda minimal narxni mahalliy Kengash belgilaydi. Demak, ilgargidek poytaxtdan ruxsat kutilmaydi va biznes uchun qulaylik yaratiladi.

Qabristonlar va dafn xizmatlari bo‘yicha narxlar ham Kengash tomonidan tasdiqlanadi. Har bir hududning ahvoli, imkoniyati turlicha ekanligi hisobga olinsa, qayd etilgan xizmat bo‘yicha endi narxlarda adolat bo‘ladi.

Ish topishda qiyalayotgan fuqarolar uchun joylarda maxsus ish o‘rinlari ajratish majburiyati belgilanadi. Ya‘ni Kengashlar ijtimoiy himoya ni amaliy ta‘minlashda faol ishtirok etadi. Shu paytgacha faqat hududiy bandlik orqali mahalliy hisobotini eshitish va ularga tavsiya berish vakolatiga ega edi.

Ayrim ko‘chalarda harakat tezligini oshirish yoki pasaytirish vakolati ham Kengashga o‘tadi. Masalan, maktab oldida tezlik pasaytirilishi yoki yangi ko‘chalarda oshirishi mumkin.

Endi Kengashlar mustaqil moliya tizimiga ega bo‘ladi. Ya‘ni, ijro hokimiyatidan moliyaviy mustaqillik ta‘minlanadi.

Kengashlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, deputatlarni rag‘batlantirish va moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilash orqali ularning ta‘sir kuchi oshadi.

Eng muhimi, endi mahalliy budget xarajatlarining bir qismi Kengash deputatlari tashabbusi asosida taqsimlanadi.

Bundan tashqari, mahalliy Kengashlarda yoshlar minbari kengayadi. Aniqlirog‘i, Oliy Majlis Yoshlar parlament-tajribasi asosida mahalliy Kengashlar qoshida Yoshlar guruhlari tashkil etiladi. Kengashlar huzurida Maslahat guruhlari NNT, fuqarolar va olimlar ishtirokida tashkil etiladi. Demakki, jamoatchilik ovozi kuchayadi.

Yana bir o‘zgarish – bundan keyin hokim o‘rinbosarligiga nomzodlar ham mahalliy Kengash komissiyasida muhokama qilinadi. Nomzodlar muhokamada o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha hududni rivojlantirish dasturini taqdim etadi. Bu malakali rahbarlarni tanlashda ochiqlik va javobgarlikni ta‘minlaydi. “Kengash soati” instituti joriy qilinishi ortidan ijro hokimiyati va jamoatchilik o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot shakllanadi.

Bundan tashqari, mansabdor shaxslarning odob-axloq qoidalarga rioya etishi ustidan deputatlik nazorati kuchaytirilishi, sessiyalar ochiq o‘tkazilib, fuqarolar kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi belgilangan ham tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lishi shubhasiz.

Shuningdek, endi xalq va vakillar o‘rtasidagi aloqa yanada ochiq, tezkor va ishonchli bo‘ladi. Buning uchun “E-Kengash” platformasi yanada takomillashtiriladi.

Albatta, bu o‘zgarishlar mahalliy Kengashlar ishini yanada shaffof va samarali qiladi, deputatlarimiz esa ko‘proq vaqtini aholi muammolarini hal qilishga ajratadi.

Musurmon BEGIMQULOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi.



“Bosh prokuror kubogi” navoiylik polvonlarga nasib etdi

Samarqand shahrida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida mahalla yoshlari oʻrtasida kurash boʻyicha “Bosh prokuror kubogi” musobaqasining respublika bosqichi boʻlib oʻtdi.

Unda 18-30 yosh toifasida mam-lakatimizning barcha hududlaridan kelgan 130 nafarga yaqin oʻgʻil-qizlar toʻqqiz vazn toifasida kuch sinashdi. Murosasiz kechgan bahs yakuni-ga koʻra, umumjamoa hisobida Navoiy viloyati yoshlari birinchi oʻrinni egallab, “Bosh prokuror kubogi”ni qoʻlga kiritdi. Ikkinchi oʻrin qashqadaryoliklarga nasib etgan boʻlsa, uchinchi oʻrinni Surxon-

daryo viloyati va Toshkent shahrining yosh polvonlari band etdi. Musobaqada birinchi oʻrinni qoʻlga kiritgan yoshlar mahallalariga universal, ikkinchi oʻringa stritbol vorkout, uchin-chi oʻringa vorkout sport maydonchalar-i qurib beriladigan boʻldi. Shuningdek, shohsupaga koʻtarilgan yoshlarga dip-lom, medal va esdalik sovgʻalari hamda ularni musobaqaga tayyorlagan sport masʼullari va murabbiylarga pul mukofot-lari topshirildi. Gʻoliblarni taqdirlash marosimi-da Sport vaziri Adham Ikramov, Bosh prokuror oʻrinbosari Sherzod Toʻxtabo-yev, viloyat hokimining oʻrinbosari Rus-tam Qobilov va viloyat prokurori Murod-qosim Eshnazarov ishtirok etdi.

F.ROʻZIBOYEV.

Садоқатли дўст, ташаббускор хизматчи эди

Бугун жадал ривожланиб бораётган қурилиш - бунёдкорлик ишларида малакали мутахассисларга бўлган талаб ортиб бормоқда. Шу боис соҳага оид касбларнинг ҳақиқий усталари ҳамма жойда қадрли. Умар Исаев ҳам қурилиш соҳасининг ҳақиқий жонқуяри ва тажрибали архитектор сифатида нафақат вилоятимиз, балки бошқа ҳудудларда ҳам катта ҳурмат қозонган инсон эди.

У.Исаев 1968 йилда Иштихон туманининг Баҳрин қишлоғи-да туғилган. У болалигиданок қурилиш соҳасига қизиқиб катта бўлди. Бу қизиқиш қатъий мақ-садга айланиб, Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институтига ўқишга кирди. Изланувчан талаба олий ўқув юртидаги ўқиши даво-мида ўзидаги ғайрат-шижоат ва интилувчанлики намоён этиб, на-фақат тенгдошлари, балки устоз-ларининг ҳам ишончини қозонди. Айниқса, амалиёт жараёнларида беvosита гувоҳ бўлган – қурилиш объектларидаги қизгин иш палла-си ва қурувчиларнинг фидокорли-ги унда танлаган касбига бўлган меҳрни янада оширди. Орада уни ҳарбий хизматга қакиришди. 1986-1988 йилларда йигитлик бурчини ўтаган У.Исаев Афғонистондаги ҳарбий хара-катларда иштирок этди. Ҳирот шаҳридаги ҳарбий қисмларнинг биридаги хизмати давомида

“Жанговар хизматлари учун” ме-дали ва бошқа давлат мукофот-лари билан тақдирланган. У ҳарбий хизматдан қайтгач, олий таълими мамолади. 1992 йилда институтни битириб, Ишти-хон тумани ҳокимлиги қошидаги лойиҳа гуруҳи ходими сифатида иш бошлади. Малакаси ошиб боргани сари туман ҳокимлиги қурилиш масалалари бўйича бош мутахассиси, туман архитектура ва қурилиш бўлими бошлиғи – туман бош архитектори вазифа-ларида кўтарилди. Асида қурилишда архитектор асосий роль ўйнайди. Чунки у на-фақат ижодкор, балки функционал ва эстетик жиҳатдан жозибador маконларни яратиш учун масъул техник мутахассис ҳамдир. Унинг вазифаси бино концепциясини ишлаб чиқиш, турли мутахассис-лар ишини мувофиқлаштириш, қурилишни назорат қилиш ва лойиҳанинг барча талаблар ҳамда



меъёрларга мувофиқлигини таъ-минлашдан иборат. Бу ишни мукамал уддалаган У.Исаев 2011 йилда вилоят архи-тектура ва қурилиш бош бошқар-маси қошидаги хўжалик ҳисоби-даги архитектура режалаштириш, ишлаб чиқариш бюроси бошлиғи лавозимига тайинланди. Ушбу вазифада салкам ўн беш йил фаолият кўрсатиб, вилоят жамоатчилиғи ўртаси-да тажрибали раҳбар-ҳодим, садоқатли ҳамкор, фаол жамо-атчи сифатида танилди. Зотан, у давлат хизматчиси сифатида вазифасини тўлақонли уддалаш баробарида Ўзбекистон “Veteran” жангчи-фахрийлар ва ноғирон-лар бирлашмаси аъзоси сифатида Афғонистонда ҳалок бўлган ва хизматдан қайтгач, оламдан ўт-ган дўстлари хотирасини абадий-лаштиришда катта хизмат қилди. Бирлашманинг вилоят кенгаши

ва раёсати аъзоси сифатида республика қурултойларида фаол иштирок этди. Самарқанд-дан ташқари, Тошкент шаҳри ҳамда Қозоғистон, Тожикистон Республикаларида бўлиб ўтган “Дийдор ширин” учрашувларида ўзининг юксак ташкилотчилик сифатларини кўрсатди. Бугун олиб борилаётган ис-лохотлар натижасида архитектура соҳасига ҳам мустақил фикрли, замонавий билимларни ўзлаштир-ган ёшлар янги гоғлар билан жа-дал қилиб келмоқда. У.Исаев ана шундай йигит-қизларнинг сеvimли устози эди. Айниқса, юртимиз ар-хитектурасини дунёнинг тараққий этган давлатлари қаторига олиб чиқишда соҳанинг ёш вакиллари-дан умиди катта эди. Шу сабаб унинг 56 ёшида вафот этиши барча яқинлари ва дўстларини доғда қолдирди. Унинг фидойи ва жонқуярлиғи шоғирд-лари ва фарзандларига мерос бў-либ ўтди. Зеро, ўғли Шоҳрух бугун Тошкентда отаси изидан бормоқда. Демак, У.Исаев бошлаган эзгу ишларни шоғирдлари, икки ўғил, икки қизи давом эттиришади. Умар Исаевнинг порлоқ хотира-си яқинлари, дўстлари, сафдошлари ва шоғирдлари қалбида ясайди.

Шухрат ДАВРОНОВ, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган меъмор. Эркин МАВЛОНОВ, “Veteran” жангчи-фахрийлар ва ноғиронлар бирлашмаси вилоят бўлими раиси.

РЕКЛАМА, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DIQQAT TANLOV!

KATTAQOʻRGʻON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
2025-2026-oʻquv yilida quyidagi mutaxassisliklar boʻyicha yuqori malakali va ilmiy darajaga ega boʻlgan professor-oʻqituvchilarni tanlov asosida ishga taklif etadi:

- Filolog: oʻzbek tili va adabiyoti (1 shtat);
- Filolog: ingliz tili (1 shtat);
- Filolog: nemis tili (1 shtat);
- Filolog: fransuz tili (0,75 shtat);
- Tarix (1 shtat);
- Matematika (1 shtat);
- Biologiya (2 shtat);
- Kimyo oʻqituvchisi (1 shtat);
- Pedagogika (1 shtat);
- Psixologiya (1 shtat);
- Matematika oʻqitish metodikasi (1 shtat);
- Ona tili oʻqitish metodikasi (1 shtat).

Manzil: Kattaqoʻrgʻon shahri Amir Temur koʻchasi, 27-uy.
Murojaat uchun telefonlar: +99897-422-34-40, +99890-469-38-30.

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Hamrayev Vafakulga (2011-yil 12-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun me-ros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Saidova Zarina Xisravov-na notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Abduraximov Berodar Astonovichga (2023-yil 3-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Mamasheva Musavarga (2025-yil 8-yan-varda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etish-larini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin koʻchasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Azizov Sher-zod Ilhomovich notarial idorasida marhum Nazarova Sungroga (2024-yil 12-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun me-ros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Azizov Sherzod Ilhomo-vich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasida marhum Umirov Asliddin Abdurashidovichga (2024-yil 24-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosa-bat bilan merosxoʻrlarning Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso koʻchasi, 4-“A” uy.

Past Dargʻom tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida mar-hum Maxsatov Yakub Xalikovichga (2024-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Hakimova Igo-ra Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Past Dargʻom tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim koʻchasi.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Pardayev Mehrid-din Muhiddin oʻgʻli notarial idorasida mar-hum Namazov Toyirga (2024-yil 27-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan me-rosxoʻrlarning Pardayev Mehriddin Muhiddin oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Narpay tumani “Alisher Navoiy” MFY, Amir Temur koʻchasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida mar-hum Raximova Robiya Xaitovnaga (2018-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-sabat bilan merosxoʻrlarning Yusupova Dil-sura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasida marhum Uluqova Aylshaga (2023-yil 26-ok-tabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasida marhum Shanazarov Eshpulatga (2014-yil 26-may-da vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso koʻchasi, 4-“A” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Neʼmatillovich notarial idorasi-da marhum Muyinov Orzikulga (2023-yil 24-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-sabat bilan merosxoʻrlarning Rahmonov Sarvar Neʼmatillovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin koʻchasi, 60-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Sadikov Musin Mirzoyevichga (2020-yil 6-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev koʻchasi, 1-uy.

OʻQISHGA MARHAMAT!

SAMARQAND OLIMPIYA VA PARALIMPIYA SPORT TURLARIGA TAYYORLASH MARKAZI
2025-2026-oʻquv yilida 5-sinfga hamda paralimpiya sport turlari boʻyicha 10-sinfga oʻqishga taklif etadi.

Markazga hujjatlar qabuli 2025-yil 1-iyuldan 31-iyulga qadar <https://my.gov.uz> platformasi orqali 5-sinfga (dzyudo, ogʻir atletika, yunon-rum kurashi, erkin ku-rash, milliy kurash, stol tennisi, velosport, badiiy gimnastika) hamda paralimpiya sport turlari boʻyicha (para-yengil atletika, pa-ra-taekvondo, para-velosport, para-dzyudo, para-paurlifting) 10-sinfga onlayn tarzda amalga oshiriladi.

Qoʻshimcha maʼlumot uchun: +9991-524-78-07 raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

Oʻqishga kirish istagini bildirganlar, tuman, shahar sport maktablarida dastlabki tayyor-garlikdan oʻtgan iqtidorli oʻquvchi-sportchilar boʻlishlari lozim.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar 2025-yil 4-6-avgustda oʻtkaziladi. Markazda barcha sharoitlar yaratilgan, oʻquvchi-lar bepul yotoqxona va kunlik oziq-ovqat bilan taʼminlanadilar.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Normatov Murod Toʻychiyevich notarial idorasida marhum Narziyeva Muzaffarga (2018-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosa-bat bilan merosxoʻrlarning Normatov Murod Toʻychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi, Tong Yogʻdusi koʻchasi, 39-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida mar-hum Kadirov Nuritdiga (1998-yil 15-fev-ralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurah-mon Jomiy koʻchasi, 17-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasida marhum Suyunov Oybekga (2018-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan me-rosxoʻrlarning Toshtemirov Alisher Poʻla-tovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak sha-harchasi, Obod koʻchasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bi-lan shugʻullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Matamatqulov Aslam Maxkamovichga (2023-yil 15-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu mu-nosabat bilan merosxoʻrlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy koʻchasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida mar-hum Xamidova Nevaraga (2012-yil 6-senta-brda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ahmedova Faran-giz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy koʻchasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Yusupova Iro-da Rustamovna notarial idorasida marhum Tangirova Zamira Barakayevnaga (2023-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-sabat bilan merosxoʻrlarning Yusupova Iro-da Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bogʻdod koʻchasi, 1-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Yusupova Iro-da Rustamovna notarial idorasida marhum Azimova Taisiya Alekseevnaga (2024-yil 30-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-sabat bilan merosxoʻrlarning Yusupova Iro-da Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bogʻdod koʻchasi, 1-uy, 3-xona.

BEKOR QILINADI

Oʻzbekiston musulmonlari idorasi Islom oʻrta maxsus bilim yurtidan 2003-yilda Xol-boyev Yaxyo Xayrullayevich nomiga berilgan roʻyxat raqami 3/66, A № 000316 raqamli diplom yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi “QANOAT GOLD” oilaviy korxonasining (STIR: 305541240) dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqol-ganligi sababli bekor qilinadi.

Абу Райҳон Беруний

Добусия

қалъасида яшаган

Ўрта асрларда Добусия қалъасидан кўплаб олимлар, қозилар етишиб чиққан

(Давоми. Бошланиши ўтган сонда)

XI аср ўрталарида Добусия тилга олинган яна бир маълумот мавжуд ва унда шаҳар мус- тақкам қалъа сифатида қайд этилган. Маҳмуд Ғазнавийнинг ўғли Султон Масъуд ўша пайт- да ўзининг қўл остида бўлган Хоразмнинг ҳукмдори Олтинтошга Бухоро ва Самарқандга (қорахоний ҳукмдор Али ибн Ҳасан (ёзма ман- баларда Али Тегин номи билан тилга олинади) қўл остида бўлган) ҳужум уюштиришга буйруқ беради. Қорахонийлар қўшинлари хоразмлик- ларга қарши чиқиб, енгилади ва Добусия қалъ- асига бекинади. Олтинтошнинг қалъани қўлга киритишга бир баҳя қолганда Али Тегин унга хат ёзиб, сулҳни Добусияда тузишга эришди. Мана шу воқеалар даврида Добусия мудофаа- ланган қароргоҳ сифатида фаолият кўрсатган. Шу пайтда, яъни хижрий 423-428 йилларда бу шаҳарда зарб этилган дирҳамда у Кутлур ўрда ад-Добусия, яъни “Бахтли Добусия” номи билан тилга олинади.

XIX аср ўрталарида Бухоро амирлиги Жиз- зах, Самарқанд, Панжикент, Челак, Нурота, Пайшанба, Кармана, Каттакўрғон, Хатирчи, Зиёвуддин, Бухоро, Қорақўл, Қарши, Шахрисабз, Китоб, Яккабоғ, Шаар (Шахрисабз), Чирокчи, Шеробод, Ғузор, Матчо, Фон, Фалғар, Яхнаоб (Янгоб), Қўштут, Бойсун, Дехнов, Юрчи, Хисор, Балжувон, Қўлоб, Қўргонтепа, Қабодиён каби 44 та бекликдан иборат бўлган.

Бундан кейинги даврда қабул қилинган ҳужжатлар ва асарларда эса Добус ва Зиёвуд- дин атамалари биргаликда қўлланган. Зиёвуд- дин арабча сўз бўлиб, “зиё ад-дин” – “диннинг нури” деган маънони англатади. Бекликда яхши отлар кўп бўлиб, амирлик эҳтёмжи учун зотли отлар етиштирилганлиги сабабли амирликнинг тўпчи қўшинларини тўлдириб турувчи асосий макон (штаб) бўлиб хизмат қилган. Бухоро амирлиги отлик аскарлари ўз отлари билан қўшин таркибига беркитилган, артиллерия би- лан таъминланиб, Зиёвуддин беклиги ҳудудида жойлаштирилган. Бу ерда отларга қараш ва қурол-аслаҳаларни таъмирлаш ҳамда озик- овқат билан таъминлаш амали оширилган. Ўша даврда Кармана ва Зиёвуддин ҳудудида амирликнинг 3 минг аскари бўлган.

Добусияда буюк ўзбек алломаси Абу Райҳон Беруний (973-1048) ҳам яшаганлиги қайд этил- ган. Шунингдек, Абу Зайд Убайдулло ибн Умар ибн Исо ад-Добусий, Зулайм ибн Ҳатит ал-Жа- хами ад-Добусий, Абу Муҳаммад Аҳмад ибн Муҳаммад ибн ад-Добусий, Абдулфатх Маймун ибн Муҳаммад ибн Абдулла ибн Бакр ибн Маж- жа ад-Добусий ва бошқалар ижод қилган. Шулардан яна бири Шарифжон Маҳдум Садр Зиё (Зиёвуддинда тўғилганлиги сабабли унга Зиё тахаллуси берилган) тараққиёпарвар олим, Бухоро амирлиги қозикалонларидан бўлган. У 1867 йил 2 февралда Зиёвуддин қишлоғи- да Абдушуккур қози оиласида дунёга келган. 1917 йилда Бухоро губернатори вазифасида ҳам ишлаган. Отаси Муҳаммад Абдушукур Оят Бухоро амири Музаффар даврида кўп давлат- ларда элчи, амирлик туманларида қози, айнан Зиёвуддин беклигининг ҳам қозикалони лавози- мида ишлаган. У Оят тахаллуси билан шеърлар битган. Шунинг учун ҳам кўп манбаларда Абду- шакур Оят номи билан тилга олинади.

Шунингдек, Бухоро амирлиги давлат бошқа- руви тизимида Остонақулибек қушбеги (1888- 1910 йилларда бош вазир)нинг хизмати жуда бекиёс бўлган. Унинг отаси Муҳаммад Шариф Амир Музаффархон даврида молия вазирини бўлиб ишлаган. Фарзандлари ва невараларининг барчасини ўқимишли қилиб тарбиялаган, фарзандлари кўп бўлган, улар Чор Россияси ҳудудларида яшаб ижод қилган. Чор Россия- си интервенцияси туфайли Бухородан чиқиб, Чоржўй, Душанбе, Чимкент ва Самарқандга яшаган. Остонақулибек қушбеги Бухоро амири сафарда вақтида давлатни ўзи бошқарган, жуда ақлли ва билимдон сибасчти бўлган. Бош вазир лавозимидан кетгандан сўннг 1910 йилларда Зиёвуддин ҳокими этиб таъинланган, сўнгра Мирбозор, Хатирчи ҳокими вазифасида ишлаган. Умрининг охиригача амирликда вақф ишлари вазирини вазифасини бажарган. Зиёв- уддин ҳокимлигидан ишдан кетганида ўрнига ўғли Раҳимбек Зиёвуддин ҳокими этиб тайин- ланган.

XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошла- рида яшаб ижод қилган муаррихлардан яна бири Мирзо Салимбекдир. Мирзо Салимбек



ибн Муҳаммад Раҳим бўлиб, 1850 йилда Бухорода таваллуд топган. У 20 ёшлигидаёқ ўзининг саводлилиги билан танилиб, Бухоро амирлигининг Нарпай ва кейинчалик Зиёвуддин ҳокимининг котиби этиб тайинланган.

Ўша йилларда Муҳаммад Содикхўжа Гулша- ний “Тарихи ҳумоюн” асарини ёзган. Асар му- аллифи тарихчи ва шоир Муҳаммад Содикхўжа тахминан 1861 йили Бухоро шаҳрида туғилган. Ҳам мударрис, ҳам муфтий бўлган отаси Муҳам- мад Мирсаид хонадонда тарбия топганлиги, қолаверса, хўжалар наслидан эканлиги сабаб- ли Муҳаммад Содикхўжа ўз даврнинг саводли ва билимли кишиларидан бўлган. Замондош- ларининг хотираларида, хусусан, муаллиф- нинг дўстларидан бири бўлган Садри Зиёнинг асарида келтирилишича, Муҳаммад Содикхўжа – Гулшаний тахаллуси остида ижод қилган.

Садриддин Айнийнинг маълумотига кўра, Муҳаммад Содикхўжа Гулшанийни машхур олим Аҳмад Дониш билан бир маҳаллада истиқо- мат қилган ва у билан доимий алоқада бўлган сафдошларидан биридир. Бу ҳам ўз навбатида Муҳаммад Содикхўжа Гулшаний яшаган илмий ижодий муҳит қай даражада юқори бўлганлиги- дан далолат беради. Гулшанийнинг ақл закова- ти, унинг Бухоро амирлигидаги ер-сув муноса- бати масалаларини ҳам муаллиф ҳар бир ҳудуд кесимида ёритган.

Мисол учун, Қарнаб тумани (ҳозирги Пахта- чи туманидаги энг қадимий катта аҳоли пункти) сув ҳуқуқида амирликнинг бошқа ҳудуддаи учрамайдиган ҳолатлар тавсифланади. “Қар- набнинг марказида жуда тоза ва тотли булоқ борки, у ердаги аҳолининг ичимлик ва сўғор- ма суви шу булоқдандир. Аҳоли ўртасида сув олди-сотдиси йўлга қўйилган бўлиб, “ҳаққоба”, яъни, сув ҳақи жуда қиммат туради. Ерни бир соатлик сўғориш нархи бир кўза сув ўлчовида минг дирҳам этиб белгиланган. Агар киши ўз ерини бир кеча-кундуз сўғормоқчи бўлса, бу унга йигирма минг дирҳамга тушади. Қарнаб- нинг тўртдан бир қисми чўлдан иборат бўлиб, унинг атрофи бўйлаб ҳар бир ёки ярим фар- саҳ кенгликда Қирбулоқ, Найманбулоқ каби булоқлар жойлашган. Худуд аҳолиси ўзига тўқ ва бой бўлиб, фақатгина лалмикор ерлар ҳисо- бидан тўланадиган бироз миқдордаги солиқни ҳисобга олмаганда, боғларидан тушадиган ҳосилдан умуман хирож солиғи тўлашмайди”.

Қарнаб қишлоғи Бухоро амирлиги даврида Кармана беклигига яқин қишлоқлардан бири деб илмий таъриф этилган. Жумладан, Мухам- мад Содик Гулшаний ўзининг “Тарихи Ҳумоюн” асарида, “Қарнаб қасабаси Карманадан 5 фар- сах жануброқ масофада жойлашган. Аҳолиси ўзбеклар, қирқ йигит, бўз бола, учирув каби кўчманчи уруғлардан иборат. Қарнаб ҳудуди- да етти минг оила истиқомат қилади, қишлоқ марказида бир катта масжиди жомъе ва тўртта кичик масжид бор”, деб маълумот берган. Шунингдек, Низомиддин ибн Садриддин ал-Бу- хорийнинг “Рисолаи Қарнаб ота”, “Рисолаи Ҳазрати Нурота” ва бошқа асарларида ҳам бу жойларда яшовчи аҳолининг ҳаёт таризи тасвирланган.

Миёнқол вилояти туманлари Бухоро туман- ларидан фарқли равишда кўпроқ чорвачилик- га мослашган. Мисол учун, Зиёвуддин, Нар- пай ва Қалъаи Добус ўзбекларида йилқичилик ривожланган бўлиб, жуда чиройли ва тез чопарлиги учун пойтахтга отлар асосан шу ҳудудлардан етказиб берилган. Шунингдек, бу ерда етиштириладиган бугдойнинг довурги бутун Туркистонга етган. Ушбу ҳудудда

чорвачилик ва деҳқончилик булоқларнинг кўплиги ва сувнинг сероблиги туфайли ривожланган. Мисол учун, муаллиф Нуротадаги бир булоққа “Бир булоғи бир дарё қилган ишни қилади”, яъни бир дарё сўғоришга қодир ерларни сўғоради, деб таърифлайди. Булоқлардан ташқа- ри Нурота сўғориш тизимида коризлар- дан фойдаланиш кенг йўлга қўйилган- ди. Қадимдан бу ҳудудда уч юз олтимш кориз мавжуд бўлиб, асар ёзилган даврда унинг юзтаси ишчи ҳолатда бўлган.

Кейинчалик, археолог олимлар томо- нидан туманнинг бу қадимий ҳудудларида илмий изланишлар амалга оширилиб, кўплаб тарих асарлари яратилган.

Тим, Қарнаб атрофларида неолит дав- рига доир жамоаларнинг излари топилган бўлиб, улар Ургут тумани- даги Омонқўтон, Севасой, Қоратепа тоғларидаги излар билан боғлиқлиги аниқланган. Бу жойлардан майда мол- ларнинг суяклари, тўёқ излари чиққан бўлиб, неолит давридаги чорвадорлар бўлиши мумкин.


Қишлоқнинг асл номи Қарноб бўлиб, аҳолиси қарнобий (қарноб- лик) деб юритилган. Кейинчалик сўз шакли бироз ўзгариб, манзил “Қарнаб” шаклида қўлланган, аҳолиси эса қар- набий (қарнаблик) деб аталган. Қарноб ҳудудидаги ноёб обидалар бу маскан- нинг ўта қадимийлигини исботлайди. Ўтмишда бу кенгликларда яшаган инсон қавми Қарноб бағридаги қоя, сой, дара тошлариға қаттиқ буюмлар билан уриб- чўкичаб суратлар солишган. Дара, қоя тошидаги тоғ такаси, Зирабулоқ, Зиёв- уддин тоғларининг жанубий томонидаги тошлардаги бурма шохли эчкилар, от устидаги овчи, икки ғилдиракли арава ша- кллари бобокалонларимизнинг турмуши, маданий ҳаёти ҳақида ҳикоя қилади.

Қарнаб ҳақида, унинг тарихи, қишлоқ атрофидаги қадимги қалай конлари, бошқа ер ости бойликлари, чорвачиликнинг илгор тажрибаси ҳақида ўтган асрнинг 50-йилларида олимлар, жумладан, фи- лологлар фанлари доктори, профессор Н.Ражабовнинг “Ўзбек тилининг Қарнаб шеваси” (С:1959) мавзусидаги илмий иши, П.Кулангиев, В.Вейсбюмларнинг “Передовой каракулеводческий колхоз “Ленинчик-чорвадор” (Т:1955) асари, Б.Литвинскийнинг “К истории добыче олова в Узбекистане” (Т:1950) китоб- ларида маълумотлар келтирилган.

Нафақат ҳозирги замон олим- лари томонидан, ўтган замонларда ҳам Зиёвуддин-Зирабулоқ тоғлари (Қарнаб тоғлари) табиий бойлик- ларга, вольфрам, қалай, мис, олтин ва бошқа полиметаллар, металлогеникларга бой бўлган провинциялар ҳисобида тилга олинган. Ғарбий Ўзбекистондаги Зиёвуддин-Зирабулоқ, Нурота ва Қизилқум тизмалари эса олтинга бой ўлкалар ҳисоблан- ган. Кўплаб қадимий қўлёзма ва уларни иккиламчи нашрла- ри таҳлилига кўра, шарқшунос олимларнинг (В.В.Бартольд, М.Е.Массон, М.П.Грязнов, Б.А. Литвинов, М.А.Абдураимов, О.И.Исломовлар) тасаввур- ларига асосан (соф) олтин ва қимматбаҳо тошлар Ўзбеки- стоннинг тоғли ҳудудларида тош асридан бошлаб қўлла- нилганлиги аниқланган.

Зиёвуддин шаҳарчаси тарихини ўрганиш ҳамда ушбу мақолани ёзиш учун жуда кўп манбаларга муро- жаат қилдим. Масалан, Ибн ал-Асирнинг «Ал-Камил фи-т тарих” асари, 1971 йилда чоп этилган “Ўзбекистон та- рихи” китоби, тарихчи олим Исмат Санаевнинг Зиёвуд- дин ва Добусқалъа тарихи ҳақидаги туркум мақолалари, шунингдек, яна ўнлаб тари- хий китобларни ўқиб, унда ёзилган тарихий шахслар, манзил ва воқеаларни изчил ўргандим. Албатта, тарихни яратиб осомас. Зиёвуддин ва Добусқалъа тарихини қандай бўлса, шундайлигича асл ҳолда аюлдаримизга етказиш учун ҳали кўп ўрганишлар олиб бори- шимиз зарур. Бу борада тарихчи- лар, ёши улғ қишлар ва ушбу манзилларнинг мозий ҳаёти билан қизиққанлар ва тарихий манбалар- ни ўқиб, ўрганганлар билан ҳам- корлик қилсак нур устига аъло нур бўлар эди.

Комил ИСМОИЛОВ, тарих фанлари номзоди.



Тўққиз фарзандни оқ ювиб, оқ тараган отам Нажмиддин Қаршибой ўғли ва энам Ҳалима Аннакул қизининг порлоқ хотирасига бағишлайман.

У пайтлар мен ҳали мак- табга бормаган бола эдим. Аммо қишлоқдаги бир хонали бошланғич мактабда ҳар куни дарсга халақит бериб, эшик пойлаганларим, санашни ўр- ганиб олганим, кейин Эшмирза муаллимининг берган китобла- рини олиб келиб, уйда расмла- рини роса томоша қилганларим хотирамда. Кейинги воқеалар ҳам кечагидай кўз ўнгимда намоён бўлади. Энди ўйласам, болаликда гувоҳи бўлган воқеа ҳодисалар бир умрлик бўлиб одамнинг онги- га ўрнашиб қоларкан. Бугун денг коммуникация асрида компьютерни билмай, шалпайиб юрганим-у, бирор- бир анжуман бўлса, яна бошқаларга гап бермай, чуқур саволлар билан билагонлик қилганим ўзимни қий- найди-да. Ҳа энди, бу кўхна дунёнинг бағри кенг экан... Бири кам деганлари чинда...

Қишлоқда энг чопагон бола мен, бир- да Сафия момо улоқнинг шохига пақир илиниб қолса, улоқни қувиб етиб, ечиб бергувчи, уйга меҳмон келса, эшагига то кетгунича қоровул, бирда қўшни қишлоққа бегона улоқларга аралашиб кетган улоқни топиб кўтариб келган синчи...Булоққа пил- дираб бориб пақирга сув олиб келувчи...

Опаларим насиб этган жойларига палах- мон тошдай учиб кетган. Катта акам узоқ Сирдарёда - чўлда яшайди, анги ўйланган кичик оила эгаси, ҳали ўзи билан ўзи овора. Иккинчи акам Россиянинг қайси бир шаҳрида хизмат қилиб қайтган, ишсиз. Касби ҳам аниқ эмас. Унга ҳўв-в Қоратов этакларидан Бардош чўпонининг қизини келин қилганми. Учинчи акам “ўзича городской”, Тошкентда медицина инсти- тутида ўқийди. Қишлоққа келганида ўт ўриб, лой қилча, ҳар кун атирини “пис-пис ” қилгани қил- ган, қишлоқ қизлари атир сепмасанг ҳам, ўзинг яхши бўлсанг қарайверади. Яна қариб, пенсияга чиққан шафёр отасидан ҳар икки-уч ойда келиб, пул олиб кетгани-чи? Кийинишлар “Советский Нортой”часига. Ҳа, баъчагар дейман ўзимча, энди йигит бўлиб қолган бўлсанг, мардикорлик қил, унда-бунда ишла, уялмай отангдан пул сўраб, шаҳарга бориб ясан-тусан кийиниб, нуқул расмга тушганинча. Бир пайтлар довругидан Оқтов ва Қоратов лол қолган Нажмиддин шофёр қариганда бола ўйлантирсинми, уларни боксинми, тўй қилсинми, студент ўғлига жинси шим кийдирсинми? Хуллас, энди Қоратовдан келинни туширишга тараддуд. Уйда отам эзлиб ўтирибди. Бир ҳафта ўн

кунда, тўйни бошлаш керак. Отамнинг кўнглига қил сиймайди. Дамланган чойни ичмадим. Энам нон ёпиш тараддудида дераза олдидан ўтиб қолди. “Бир пайт- лар менам кимсан палончи эдим. Энди қўлим калта бўлса, болта билан чопиб ташлайинми, қайси бирига бўлай, йиғламсираб бақирди отам, энамни эшитсин деб, ўйланган эшакнинг (акамни айтаяпти) қўлида касби йўқ. Бу ёшдаги болалар отасига қарашяпти, бир ишининг этагини тутаяпти. Мен бу ёшда Каттакўрғонда олти ойлик ўқишда ўқиб, техникани ёдлаб олдим. Шофёр бўлиб обрў орттирдим. Оила бокдим. Бунинг бари менга дардисар...Хее”. Отам чой тўла чойнакни деразадан отиб юборди. Чойнак чил-чил синди...

Дераза туйнугидан қараган энам: “Ҳа, энди бўлди- да, боринг, шу икки сигирни сотиб келинг, мол одам бошига битадиган нарсас, бир кўнлик тўй ўтар-кетар- да, шунгаям ота гўри қозихона қилманг”, деди.

Оғир жараён менга ҳам таъсир қилган. Ўша пайт- ларда артистларсиз чилдирма чалинадиган тўйнинг ҳам ўзи бўлмаслигини энди сезгандай бўлдим. Қир этагидаги икки хонали шиферсиз уйимиздан чиқиб, чакалақзордаги булоқ томонга йўл олдим. Ҳорғин эдим. Оқтов этакларидан кўриниб турадиган кенг- ликда, узоқдан чизикқа ўхшаб кўринадиган йўлда машина гуриллади. У пайтлар ана шу юк машинала- ридан бошқа техника қишлоқларга деярли келмас, борида тариллаган мотоцикл бўларди. Йўғида – йўқ. Ўша даврнинг ўзига тўқ одамларида Штирлицнинг мошинасига ўхшаган “Москвич” бўларди, “тўпилаб” юрадиган. Аламангиз турган, мен болакайга Қувон- диқ шофёрнинг ГАЗ-51 машинаси ўша пайтда Чингиз Айтматовнинг “Оқ кемаси”дай кўринган. Уйда эса бу ахвол. Аслида Қувондиқ шофёр бегонамас. Аммиаиз- нинг катта ўғли ва отамнинг шоғирд жиғия, тоғага эр- гашиб шофёрлик касбини танлаган. Олис Қизилқумда- ги автобаза ҳайдовчиси.

Кўп ўтмай варанглаб юк машинаси уйимиз олди- га келиб тўхтади. Ундан Қувондиқ шофёр салобат билан тушиб келди. Тоға-жиан узоқ гурунғ қилишди. Мен машина кабинасига чиқиб “ҳайдаб” ўтирдим. Энамнинг нони пишиб, оқ шўрвадан тотигач, жиан Қизилқум сафарига отланди. “Э, тоға сиқилманг, фарзандларнинг бориға шўкр, бир кўнлик тўй нима, кетатуриб. Шофёрни кузатишда отам: “Бор- ларингга шўкр жиан. Тўй куни кутаман”.

Ўлжабой ҚАРШИБОЙ
Тошкент – Нурота – Тошкент.

Мазкур мақоланинг давомини электрон шаклда ушбу QR-код орқали ўқийшингиз мумкин.



SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

15-IYUL

Inoyatulla SUVONQULOV - (1934-2012) Jizzax viloyati G'allaorol tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.
Zulfiya MO'MINOVA - 1959-yilda Narpay tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira.

19-IYUL

Damir SALIMOV – (1937-2019) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

20-IYUL

Mahmud SA'DIY - (1939-2019) Narpay tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, publitsist va muharrir.
Erkin QAYTAROV – 1958-yilda Payariq tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

22-IYUL

Saidali MIRZAYEV – 1939-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Ganchkor. O'zbekiston xalq ustasi.

30-IYUL

Oydinniso HAMROYEVA – 1952-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 953 nusxada chop etildi. Buyurtma 327. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda